



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Majidova Shohsanam Sherali qizi, Amonkulova Zamira Azim qizi

*Samarqand davlat universitetining
Kattaqo'rg'on filiali 1-kurs talabalari*

**INKLYUZIV TA'LIM YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT
TA'LIM SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI SIFATIDA**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimiz ta'lismi tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta'limga yuksaltirish masalalari, 2020-2025-yillarda xalq ta'lismi tizimida inklyuziv ta'limga rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lismi ya'ni inklyuziv ta'lismi tizimining takomillashuvi va bu ta'lismi maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lismi tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ta'lismi, tarbiya, inklyuziv ta'lismi, maktab, jins, ta'lismi shakllari, metod, ijtimoiy siyosat

**INCLUSIVE EDUCATION AS A PRIORITY OF STATE EDUCATION
POLICY IN THE NEW UZBEKISTAN**

Majidova Shokhsanam Shereli kizi, Amonkulova Zamira Azim kizi

majidovashoh@gmail.com

Abstract: The article analyzes the reforms in the education system of the country and their importance issues of raising inclusive education the pedagogical significance of the concept of development of inclusive education in the public education system in 2020-2025.

This article discusses the new system of education in our country in the improvement of the system of inclusive education and the introduction of this



system of education in preschool education the adaption of new decisions and deccress to develop the system of inclusive education it is said that the tasks are loaded.

Keywords: education, upbringing, inclusive education, school, genus, forms of education, method, social policy.

Kirish: So‘nggi o‘n yilliklarda ko‘pgina mamlakatlarda ijtimoiy taraqqiyot ijtimoiy siyosatni liberallashtirish va ijtimoiy huquqlarni ta’minlash jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Jamiatning barcha guruhlari uchun ta’limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan inklyuziv ta’lim butun ta’lim tizimidagi liberallashtirish jarayonlari bilan muqarrar ravishda to‘qnash keladi. Ushbu ishda ushbu jarayonlarning qarama-qarshi ta’siri aniqlanishi kerak, ayniqsa, inklyuziv ta’limning Rossiya tajribasi asosan xalqaro tajriba asosida shakllangan, uning o‘ziga xos xususiyatlarini oladi. Inklyuziv ta’lim ta’lim sohasidagi umumiy ijtimoiy siyosatni bir qismi bo‘lib, u har bir ijtimoiy davlat turiga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Inklyuziv termini inglizcha- uyg‘unlashish, hamkorlikdagi ta’lim ma’nosini berib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta’lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta’lim- barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir. Mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim- tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari va usullarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-2025-yillarda xalq ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog‘liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. Inklyuziv ta’lim konsepsiyasini O‘zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot-axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

Adabiyot tahlili va metodlar

Ushbu maqolani tahlil jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, obyektivlik, izohlilik, tarixiylik usullaridan keng foydalaniladi. Inklyuziv ta’lim zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi muammolari haqida qisqacha tahlil olib borildi.

Крыжановская Л. М “Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования Пособы для психологов и педагогов” nomli kitobi mantiqiy tahlil sifatida olindi. Inklyuziv ta’lim rasmiy ta’lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta’limda ko‘proq o‘qishda, o‘rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv ta’limning o‘ziga xos muhim jihat shundaki, bolalar va o‘qituvchi bir-birlaridan o‘rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi.



Keyingi yillarda mamlakatimiz ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, bu boradagi davlat siyosatining dolzarb yo‘nalishlaridan biri inklyuziv ta’limni rivojlantirishdir. Inklyuziv ta’lim sohasidagi davlat siyosati, birinchi navbatda, tizimni normativ-huquqiy, moddiy texnik, kadrlar, o‘quv-uslubiy va axborot ta’mnoti bilan ta’minlashni nazarda tutadi. Bolaning inklyuziv muhitda boshqalardan o‘zini kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyati cheklanganidan siqilmasligi uchun sharoit yaratish muhim.

Muhokama va natijalar

Inklyuziv ta’lim tizimida jahon miqyosida amaliyatga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar juda ko‘plab muammolar va to‘siqlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: Salbiy munosabat, Hamjamiyatda ko‘rinmaslik, moddiy mablag‘ muammolari, Jismoniy moslashtirish, sinfdagi o‘quvchilar soni, Qaramlik, Jinsiy belgilarga qarab kamsitish, Favqulodda vaziyatlar va boshqalar. Salbiy munosabat alohida maxsus ehtiyojli bolalarning umumta’lim muassasalari tizimida ta’lim-tarbiya olishlari uchun eng kata to‘siq bo‘lsa kerak. Salbiy munosabatlar muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a’zolari, o‘qituvchilar, umumta’lim muassasalari xodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o‘zlaridagi umumta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya olishlariga nisbatan qarshiliklari va buni istamasliklaridir. Birinchi navbatda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish kerak. Yangi tahrirdan o‘tgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda tarixda birinchi marta inklyuziv ta’lim tushunchasi kiritilgan edi. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada, bir xil sharoitda ta’lim olishni anglatadi. Shunday vaziyatda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriy turdag‘i maktab internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida 13,3 ming nafar o‘quvchi uyda ta’lim oladi. 2020-yil statistikasiga ko‘ra, O‘zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiyl o‘rtalama ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. 2021-2022-o‘quv yilida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning 24 foizi inklyuziv ta’lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan. 2025-yilga borib bu ko‘rsatgich 40 foizga yetishi nazarda tutilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan umumta’lim maktabida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun boshlang‘ich tayanch korreksion sinflari ochilishi belgilangan. Bundan tashqari, umumta’lim maktablari psixologlari tomonidan o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida har qanday tazyiq, zo‘ravonlik va buni istamasliklaridir.

Xulosa va takliflar

Inklyuziv ta’limni amaliyatga joriy etish orqali har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o‘z vaqtida aniqlab, mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o‘z vaqtida olib borilsa albatta ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya’ni inklyuziv ta’limning samarasi yuqori darajada bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim nogironlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta’lim olishini ta’minlaydi. Eng muhimi inklyuziv ta’limni joriy qilish tartiblarini nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar va ularning ota-onalari, maxsus maktab-internatlari pedagoglari, nogironlar tashkilotlari vakillari bilan birgalikda ishlab



chiqish kerak. Ular bilan to‘g‘ridan-to‘gri muhokamalar olib borib, fikr va takliflari inobatga olinsa, me’yoriy hujjatlar amalda samaraliroq ishlaydi. Nogironligi bo‘lgan bolalarning o‘zlari va ularning ota-onalari o‘z vaziyatlarini yaxshi bilishadi va Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ularning fikrlari, takliflari qabul qilinishi kerak. 2025-yilgacha bo‘lgan maqsadlar xuddi konsepsiadagidek amalga oshirilsa, imkoniyati cheklangan bolalar boshqalar singari bir xil sharoitda ta’lim olishga erishadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, imkoniyati cheklangan bolalar maktablarda amalga oshirilayotgan ushbu amaliy qadamlar va kerakli zaruriy chora-tadbirlar natijasida ushbu tizimdagi mavjud muammolar o‘z yechimini topishi hamda jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy-psixologik holatlariga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar (References)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori **PQ-4312 08.05.2019**
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori **-4860 13.10.2020**
3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
6. D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo’llanma 2014-yil